

## ABDULLA QAHHORNING "O'G'RI" HIKOYASIDA IJTIMOY ADOLATSIZLIK TASVIRI

Salimova Muhtaram Sarbos qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20679283>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi tahlil qilinib, unda ijtimoiy adolatsizlik muammosining badiiy talqini yoritiladi. Asarda jamiyatdagi moddiy tengsizlik, inson taqdirining muhit bilan bog'liqligi hamda realizm tamoyillarining namoyon bo'lishi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Hikoyaning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinib, muallifning ijtimoiy muammolarga munosabati ochib beriladi. Kalit so'zlar: realizm, ijtimoiy adolatsizlik, amaldorlar, tengsizlik, ijtimoiy muhit, Qobil bobo. XX asr o'zbek adabiyotida ijtimoiy realizm yo'nalishini rivojlantirgan yetuk ijodkorlardan biri Abdulla Qahhor. Yozuvchi o'zbek hikoyachiligiga beqiyos hissa qo'shgan. U o'z asarlarida jamiyatdagi dolzarb muammolarni, oddiy inson hayotini va uning ichki ruhiy kechinmalarini haqqoniy tasvirlaydi. "O'g'ri" hikoyasi ana shunday asarlar sirasiga kirib, unda ijtimoiy adolatsizlik masalasi inson taqdiri misolida yoritiladi. Asar kichik hajmli bo'lishiga qaramay, unda katta ijtimoiy muammo umumlashtirilgan holda aks etadi. Hikoya 1936-yilda yozilgan bo'lsa-da, undagi ijtimoiy muammolar hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Hikoyaning syujeti oddiygina Qobil boboning ho'kizi yo'qolishi bilan boshlansa-da, ammo uning zamirida oddiy xalq va amaldorlar o'rtasidagi chuqur tafovut, muammolarga befarqlik, poraxo'rlik hamda mansabparastlik kabi salbiy illatlar yotadi. Hikoyada Qobil bobo halol dehqon obrazida tasvirlangan. Uning ho'kizi faqatgina moliyaviy manba bo'libgina qolmay, balki hayotning o'zi, orzu-umidlari va kelajagi timsolidir. Shu sababli Qobil bobo uchun ho'kizning yo'qolishi katta fojia hisoblanadi. Asarga epigraf qilib olingan „Otning o'limi — itning bayrami“ maqoli orqali Abdulla Qahhor asar voqealari boshlanmasdan turib, oddiy xalqning boshiga tushgan kulfatdan manfaatdor bo'lgan mansabdor shaxslarning mudhish qiyofasiga ishora qiladi. Ma'lumki, asar sho'rolar (mustamlaka) davridagi ijtimoiy muhitni aks ettiradi. Bu davrda oddiy xalqning huquqiy va dunyoviy bilimlardan yiroqligi asarda yaqqol namoyon bo'lgan. Qobil bobo sodda, savodsiz, huquqini tanimaydigan mehnatkash kishi bo'lgani sababli ham mansabdor amaldorlar uni osongina alday olishgan. Uning kampiri ham juda sodda, ishonuvchan bo'lib, mustamlaka tizimi amaldorlari bu vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida juda unumli foydalanishgan. Agar biz o'sha davrni tahlil qiladigan bo'lsak, mansabdor shaxslar o'z mansabini suiiste'mol qilib, korrupsion muhitni yuzaga keltirganini ko'rishimiz mumkin. Hikoyada ijtimoiy adolatsizlik bir necha qatlamda tasvirlangan. Moddiy yetishmovchilik va boy-kambag'al o'rtasidagi tafovut qahramonning shaxsiy hayotida keskin aks etadi. Shuningdek, jamiyatning loqaydligi va ma'murlar tizimining sust ishlashi muammoni yanada chuqurlashtiradi. Muallif bu ijtimoiy sabablarni ochib berish orqali, muammoni faqat shaxsiy ayb yoki oddiy o'g'rilik sifatida baholashning noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Hikoyada Qobil bobo ho'kizi yo'qolgani uchun jon kuydirib kuyuniyotgan bir vaqtda, burunsiz ellikboshining "Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi" degan gapi soddagina dehqon xayolida ho'kizni naqd topiladigandek qilib qo'yadi. Hikoyani o'qigandan so'ng, o'quvchida "Asardagi haqiqiy o'g'ri kim?" degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Hikoyadagi haqiqiy o'g'ri devorni teshib ho'kizni olib ketgan shaxs emas, balki xalqning soddaligi va chorasizligidan foydalangan amaldorlardir. Demak, "O'g'ri" nomi ramziy ma'no kasb etadi. U faqatgina chorva o'g'risiga emas, balki insonlarning hayotini o'g'iraydigan, xalq ishonchini suiiste'mol qiladigan mansabdor shaxslarga ishora qiladi. Yana bir e'tiborli jihati — hikoyada

xalqning ishonuvchanligi, og‘ir holatga tushganda baribir umid bilan yuqori tizimga yuz tutishi va ulardan haqiqat kutishi tasvirlanadi. Lekin eng achinarlisi shundaki, bu yo‘qotishga hech kim chin dildan hamdard emas. Yordam va‘da qilganlarning hammasi foyda olish maqsadida yolg‘on so‘zlab, Qobil bobo va kampirini ishontirib qo‘yishgan. Ko‘mak berish va‘dalari orqasida faqatgina manfaat, pora va "sovg‘a" turgani har bir sahnada ayon bo‘ladi. Amin, ellikboshi, pristav kabi obrazlar orqali o‘sha davr jamiyatining chirkin ijtimoiy tuzilmasi keskin tanqid ostiga olinadi. Qobil bobo esa xalqning ramzidir — u zo‘ravonlik, befarqlik va ustidan kulishga dosh berib, hayotda haqiqat istab yashayotgan jabrdiyda mehnatkash odamdir. Bugungi o‘quvchi bu hikoyani faqat o‘tmish yodnomasi sifatida emas, balki jamiyatdagi ba‘zi muammolarning ildiziga nazar solish uchun ham o‘qishi lozim. Hikoyada kambag‘allik, tengsizlik va jamiyatning loqaydligi inson hayotiga qanday ayancli ta‘sir ko‘rsatishi badiiy asosda ko‘rsatiladi. Qahhor qahramonni shunchaki qoralash emas, balki uning ichki kechinmalarini tahlil qilish orqali o‘quvchini ijtimoiy muammolar mohiyati qalida mushohada yuritishga undaydi. Bu esa asarning nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyatini ham oshiradi. Shunday qilib, "O‘g‘ri" hikoyasi kichik hajmiga qaramay, katta ijtimoiy-falsafiy mazmunni mujassamlashtirgan asar sifatida bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Yozuvchining mahorati shundaki, u birgina oddiy inson taqdiri va uning fojeasi orqali butun bir davr va jamiyat muammosini bor bo‘yicha ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan. Adabiyotlar, References, Литературы: Abdulla Qahhor. Asarlar. Ikki jildlik. 1-jild: Hikoyalar, qissalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. Qo‘shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

### **Kalit so'zlar:**

Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning "O‘g‘ri" hikoyasi tahlil qilinib, unda ijtimoiy adolatsizlik muammosining badiiy talqini yoritiladi. Asarda jamiyatdagi moddiy tengsizlik, inson taqdirining muhit bilan bog‘liqligi hamda realizm tamoyillarining namoyon bo‘lishi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Hikoyaning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinib, muallifning ijtimoiy muammolarga munosabati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: realizm, ijtimoiy adolatsizlik, amaldorlar, tengsizlik, ijtimoiy muhit, Qobil bobo.

XX asr o‘zbek adabiyotida ijtimoiy realizm yo‘nalishini rivojlantirgan yetuk ijodkorlardan biri Abdulla Qahhordir. Yozuvchi o‘zbek hikoyachiligiga beqiyos hissa qo‘shgan. U o‘z asarlarida jamiyatdagi dolzarb muammolarni, oddiy inson hayotini va uning ichki ruhiy kechinmalarini haqqoniy tasvirlaydi. "O‘g‘ri" hikoyasi ana shunday asarlar sirasiga kirib, unda ijtimoiy adolatsizlik masalasi inson taqdiri misolida yoritiladi. Asar kichik hajmli bo‘lishiga qaramay, unda katta ijtimoiy muammo umumlashtirilgan holda aks etadi. Hikoya 1936-yilda yozilgan bo‘lsa-da, undagi ijtimoiy muammolar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Hikoyaning syujeti oddiygina Qobil boboning ho‘kizi yo‘qolishi bilan boshlansa-da, ammo uning zamirida oddiy xalq va amaldorlar o‘rtasidagi chuqur tafovut, muammolarga befarqlik, poraxo‘rlik hamda mansabparastlik kabi salbiy illatlar yotadi. Hikoyada Qobil bobo halol dehqon obrazida tasvirlangan. Uning ho‘kizi faqatgina moliyaviy manba bo‘libgina qolmay, balki hayotning o‘zi, orzu-umidlari va kelajagi timsolidir. Shu sababli Qobil bobo uchun ho‘kizning yo‘qolishi katta fojia hisoblanadi.

Asarga epigraf qilib olingan „Otning o‘limi — itning bayrami“ maqoli orqali Abdulla Qahhor asar voqealari boshlanmasdan turib, oddiy xalqning boshiga tushgan kulfatdan manfaatdor bo‘lgan mansabdor shaxslarning mudhish qiyofasiga ishora qiladi. Ma‘lumki, asar sho‘rolar (mustamlaka)

davridagi ijtimoiy muhitni aks ettiradi. Bu davrda oddiy xalqning huquqiy va dunyoviy bilimlardan yiroqligi asarda yaqqol namoyon bo'lgan. Qobil bobo sodda, savodsiz, huquqini tanimaydigan mehnatkash kishi bo'lgani sababli ham mansabdor amaldorlar uni osongina alday olishgan. Uning kampiri ham juda sodda, ishonuvchan bo'lib, mustamlaka tizimi amaldorlari bu vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida juda unumli foydalanishgan. Agar biz o'sha davrni tahlil qiladigan bo'lsak, mansabdor shaxslar o'z mansabini suiiste'mol qilib, korrupsion muhitni yuzaga keltirganini ko'rishimiz mumkin.

Hikoyada ijtimoiy adolatsizlik bir necha qatlamda tasvirlangan. Moddiy yetishmovchilik va boy-kambag'al o'rtasidagi tafovut qahramonning shaxsiy hayotida keskin aks etadi. Shuningdek, jamiyatning loqaydligi va ma'murlar tizimining sust ishlashi muammoni yanada chuqurlashtiradi. Muallif bu ijtimoiy sabablarni ochib berish orqali, muammoni faqat shaxsiy ayb yoki oddiy o'g'rilik sifatida baholashning noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Hikoyada Qobil bobo ho'kizi yo'qolgani uchun jon kuydirib kuyuniyotgan bir vaqtda, burunsiz ellikboshining "Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi" degan gapi soddagina dehqon xayolida ho'kizni naqd topiladigandek qilib qo'yadi.

Hikoyani o'qigandan so'ng, o'quvchida "Asardagi haqiqiy o'g'ri kim?" degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Hikoyadagi haqiqiy o'g'ri devorni teshib ho'kizni olib ketgan shaxs emas, balki xalqning soddaligi va chorasizligidan foydalangan amaldorlardir. Demak, "O'g'ri" nomi ramziy ma'no kasb etadi. U faqatgina chorva o'g'risiga emas, balki insonlarning hayotini o'g'irlyadigan, xalq ishonchini suiiste'mol qiladigan mansabdor shaxslarga ishora qiladi.

Yana bir e'tiborli jihati — hikoyada xalqning ishonuvchanligi, og'ir holatga tushganda baribir umid bilan yuqori tizimga yuz tutishi va ulardan haqiqat kutishi tasvirlanadi. Lekin eng achinarlisi shundaki, bu yo'qotishga hech kim chin dildan hamdard emas. Yordam va'da qilganlarning hammasi foyda olish maqsadida yolg'on so'zlab, Qobil bobo va kampirini ishontirib qo'yishgan. Ko'mak berish va'dalari orqasida faqatgina manfaat, pora va "sovg'a" turgani har bir sahnada ayon bo'ladi. Amin, ellikboshi, pristav kabi obrazlar orqali o'sha davr jamiyatining chirkin ijtimoiy tuzilmasi keskin tanqid ostiga olinadi. Qobil bobo esa xalqning ramzidir — u zo'ravonlik, befarqlik va ustidan kulishga dosh berib, hayotda haqiqat istab yashayotgan jabrdiyda mehnatkash odamdir. Bugungi o'quvchi bu hikoyani faqat o'tmish yodnomasi sifatida emas, balki jamiyatdagi ba'zi muammolarning ildiziga nazar solish uchun ham o'qishi lozim.

Hikoyada kambag'allik, tengsizlik va jamiyatning loqaydligi inson hayotiga qanday ayanchli ta'sir ko'rsatishi badiiy asosda ko'rsatiladi. Qahhor qahramonni shunchaki qoralash emas, balki uning ichki kechinmalarini tahlil qilish orqali o'quvchini ijtimoiy muammolar mohiyati qalida mushohada yuritishga undaydi. Bu esa asarning nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini ham oshiradi.

Shunday qilib, "O'g'ri" hikoyasi kichik hajmiga qaramay, katta ijtimoiy-falsafiy mazmunni mujassamlashtirgan asar sifatida bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Yozuvchining mahorati shundaki, u birgina oddiy inson taqdiri va uning fojeasi orqali butun bir davr va jamiyat muammosini bor bo'yicha ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

### References:

1. Abdulla Qahhor. Asarlar. Ikki jildlik. 1-jild: Hikoyalar, qissalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
2. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.